



## TALABALARING TA'LIMDAGI MUVAFFAQIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR

***Tashmetova Gulnoza Sadreddinovna***

*Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*

### ANNOTASIYA

Ta'lismiz tizimi har bir jamiyat va davlat uchun taraqqiyot hamda barqarorlik kafolati sifatida qaraladi. Shu sababidan sohaning zamon talablariga javob berishi uchun yangilanib isloh etib turilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Oliy ta'lismizdagi talabalar muvaffaqiyatning asosiy omillarini baholash uchun uni belgilovchi omillarni hisobga olgan holda faoliyatni tashkil etish tizimning zarurati hisoblanadi. Maqola ta'lismiz va tarbiyaning zamonaviy usullari taklif etilayotgan bir davrda keltirilgan omillardan kelib chiqilishi kerakligi aytib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** tendensiya, konsepsiya, akademik munosabat, omillar, inklyuziv omil, individual vositalar, uzluksiz, tizim.

Bugungi ta'lismiz va tarbiya tizimi uzluksiz jarayon sifatida qaralayotgan bir vaziyatda uning maqsadi va vositalar yangilanishi talabalarining ma'naviy qiyofasida birmuncha o'zgartirishlarga sabab bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda shaxsni shakllantirish uni jamiyat taraqqiyotining turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tendensiyalari bilan tanishtirish asosida amalga oshiriladi. Ta'lismiz va tarbiya, aslida, ajdodlar hayot tajribasini yoshlarga yetkazishga va shu asosda ularning jamiyatda o'z o'rinalarini topishga imkon beradigan murakkab jarayondir. Bugungi kunda ta'lismiz va tarbiyaviy ishlarni bo'yicha yangi konsepsiyanı yaratishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Ta'lismiz muassasalarini tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va muvaffaqiyatli davom ettirish uchun zarur bo'lgan tarbiyaviy ishlarni uslublari, bilimlar, malaka va mahoratlar tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni tarbiyaviy ishlarni amaliyotida qo'llash masalalari pedagogik jamoalarining eng muhim muammosi bo'lib qolmoqda. Oliy ta'lismiz muassasalarida talabalar bilan olib boriladigan ishlarning samaradorligini oshirish uchun alohida tanlab olingan texnologiyani to'g'ri tashkil qilish va qo'llashga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida ta'lismiz muassasalarini uchun ta'lismiz va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uslubiyoti zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlanmalarini asosida yaratishni talab etadi. Fikrimizcha, ta'lismiz muassasalarining tarbiyaviy ishlarni texnologiyasi ijodiy faollik, mustaqil fikrlash va mohirona harakatlarga yo'naltirilgan bo'lish va tarbiyachi hamda o'quvchilar



tomonidan minimal kuch sarflagan holda tarbiyaviy ishlar bo'yicha qo'yilgan maqsadlarni egallashda eng faol shakl, usul va uslublardan foydalanish, tarbiyaviy jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etuvchilarning doimiy va majmuaviy faoliyatining asosiy qismidan iborat bo'lishi kerak.

Talabalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishining turli bosqichlarida o'qish jarayonida erishgan natijalari tufayli ularda, ijobiy munosabat va kuchli motivatsiya yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ta'lim sohasiga ko'ra, bu individual masala hisoblanadi. Yani har qanday rivojlanish kishining asosan o'z shaxsiyatiga taaluqli masala hisoblanadi. Shu bilan birga har bir talaba o'zining faoliyati davomida qaysidir natjalarga va yutuqlarga ega bo'lish uchun intiladi va bunga doimiy ravishda tezroq erishishga harakat qiladi. Muvafaqqiyatdagi tezkorlik barcha uchun muhim bo'lsada, uning asosini talabalarni ilmiy muhitga yaqinlashtirish bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Psixologiya, ijtimoiy fanlar va sotsiologiya nuqtai nazaridan akademik munosabat, shaxs bo'lishdan tashqari, keng ijtimoiy xususiyatga ega bo'lsa, har bir talaba o'zining shaxsiyati, uning moyilligi, qiziqishi va xususiyatlarga ko'ra ma'lum munosabatlarga ega degan fikr mavjud. Akademik munosabatning bo'lishi talabaning ilmiy doiraga ko'proq tortilib borilishiga olib keladi. Talabalarning ijtimoiylashuvi atrof-muhit, atrofdagi odamlar, ota-onalar va o'qituvchilar bilan birgalikda amalga oshirilsa samaradorlik darajasi yuqori bo'lishi mumkin.

Talabalarning o'qishdagi yutuqlari ta'limni baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, ushbu tizimdagи barcha sa'y-harakatlar jamiyatning shunday harakat qilishiga qaratilgan sa'y-harakatlar sifatida qaraladi. Umuman olganda, butun jamiyat, xusan, ta'lim tizimidagi talabalar kelajagi, ularning muvaffaqiyatli o'sishi va rivojlanishi, jamiyatdagi o'rni ularning salohiyat darajasiga ham ko'p jihatdan bog'liq [1].

Shubhasiz, bugungi taraqqiy etgan dunyoda inson muvaffaqiyatining belgilaridan biri bu ilm-fan taraqqiyoti bo'lib, usiz hech bir davlatning taraqqiyoti haqida gapirib bo'lmaydi. Har qanday davlatning taraqqiyoti o'sha davlatning ilm-fan, bilim va texnika taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, ijodkor kadrlar tayyorlanmaguncha ilmiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Ta'lim taraqqiyoti mamlakat taraqqiyoti va ravnaqi yo'lida samarali bo'lishi bilan birga, yetakchilik qiladi. Yuqori darajadagi ish va lavozimlarni topishga mos keladi va natijada daromad yetarli bo'ladi. Ilmiy mavqega ega bo'lgan talabalar, oilalar va jamiyat ularga hurmat bilan qarab boshlaydi. Ular jamiyatga katta ishonch va chanqoqlik bilan kirib boradilar. Bundan tashqari, ulardagи akademik muvaffaqiyatlar tufayli



ta’lim va hayotda kamroq qiyinchiliklarga hamda xarajatlarga duch keladilar. Ta’lim tizimining samaradorligi va sifatini oshirishni mamlakatlar taraqqiyotining eng samarali omili deb hisoblash mumkin. Yaponiya kabi ilg’or mamlakatlarning har tomonlama rivojlantirish borasidagi tajribasi ham ta’lim va kadrlar sohasiga sarmoya kiritilayotganidan dalolat beradi. Bu maqsadlarga erishish uchun ta’lim sifatini oshirish ta’lim dasturlarining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta’limdagi muvaffaqiyatsizlik ota-onalar va ta’lim tizimining asosiy tashvishga soladigan masalalardan biridir. Muvaffaqiyatli ta’lim tizimini ishlab chiqish barcha ta’lim sohalari va ayniqsa pedagogika fanining tadqiqot mavzularidan biridir. Ammo ta’limdagi muvaffaqiyatlarning etishmasligi fuqarolardagi shaxsiy va ijtimoiy muammolar mavjudligi balki, tizimli ekanligi, ta’lim tizimining maqsadlariga erishisha olmayotganligining asosiy sabablaridandir. Tadqiqotchilar talabalarning ilmiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi turli omillarni ko’rib chiqdilar. Ammo madaniy farqlar va omillarning vaqt o’tishi bilan tez o’zgarishi sababli, umumiy qoida sifatida jamiyatlar uchun aniq sabablarni taklif qilish mumkin emas. Chunki madaniy jahatning jamiyatlar uchun xilma-xilligi yagona muvafqaqiyatli tizimni taklif eta olmasligiga olib kalmoqda. Ijtimoiy qoidalari va jamiyatning madaniyati, odamlarning ta’limga bo’lgan munosabati, ota-onalarning daromad darajasi va hokazolar, ayniqsa, jamiyatda akademik muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik fuqarolarning ta’limga e’tiborini belgilab olishiga ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi [2]. Mayjud manbalar shuni ko’rsatadiki, ta’lim odatda o’qituvchi, dastur, jihozlar va ta’lim muhitining beshta inklyuziv omiliga ta’sir qiladi, bu omillarning har biri ta’limning taraqqiyoti va samaradorligiga asos bo’ladi.

Har bir inson jamiyatga kirib borishi va natijada turli vaziyatlarga va turli odamlarga (madaniy, iqtisodiy) duch kelishi uchun qandaydir vositalar bilan qurollangan bo’lib, bu individual vositalarni unga hayotiy hodisalar bilan to’qnash kelishiga yordam beradigan shaxsning psixologik tuzilmalari deb hisoblash mumkin. Bu psixologik tuzilmalar oila, jamoa, tengdoshlar guruhi va boshqalar kabi turli omillar tomonidan o’zaro ta’sir qiladi. Shu sababli, tadqiqotchilar har doim ushbu psixologik jihatlarning odamlar hayotining turli jabhalariga ta’siriga katta e’tibor berishgan [3].

Bugun O’zbekiston mafkuraviy qolipdan qutulgan bir vaziyatda o’zining yangicha taraqqiyot nuqtalarini topib, shu orqali maqsadga erishishga harakat qilmoqda. Bu hol pedagogikaning sog‘lom aql, milliy ruhiyat va an’analarga monand tarzda yo’lga qo‘yilishiga imkon yaratdi. Bugungi o’zbek pedagogikasi millat ruhiyatidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng



so‘nggi yutuqlarga tayangan holda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o‘zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Bu pedagogika ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishlarini ko‘zda tutadi. Ta’limda yoshlar pedagogik jarayonning obyektigina emas, balki subyekti, ya’ni ijrochisi ham ekanligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuning uchun milliy ta’lim-tarbiya tizimiga tayangan holda yangi uyg‘onish davriga intilish natija berishi uchun alohida shaxslar emas butun jamiyat amaliy ko‘tarilish ko‘rsata olishi kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sadriddinovna, T. G. (2023). KELAJAK KADRLARINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON TARBIYA RESURSLARINING AHAMIYATI. IQRO JURNALI, 2(1), 750-753.
2. Akbarjonovich M. A. AN ANALYTICAL APPROACH TO THE ELIMINATION OF CORRUPTION //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 2045-2047.
3. Sadriddinovna T. G. EDUCATION AND EDUCATION IS THE BASIS OF THE THIRD RENAISSANCE //PEDAGOGS журнали. – 2023. – Т. 35. – №. 2. – С. 162-165.
4. Akbarjonovich, M. A. (2023). MIGRATSIIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI. IQRO JURNALI, 2(1), 628-631.
5. Akbarjonovich M. A. MIGRATSIIYANI KELTIRIB CHIQARUVCHI SABABLAR //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – С. 32-34.